

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI  
KORREKSIYALASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISHNING MAXSUS TAMOYILLARI**

*Xayitgul Muzaffarova*

*JDPU Maxsus pedagogika p.f.f.d. (PhD)*

[\*xayitgulmuzaffarova@gmail.com\*](mailto:xayitgulmuzaffarova@gmail.com)

*Lapasova Ra'no Anvar qizi*

*JDPU Maxsus pedagogika (logopediya)*

*mutaxassisligi II-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini korreksiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning maxsus tamoyillari haqida keltirib o'tilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyalari ochib berildi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish dasturini ishlab chiqish va kiritish ularning nutqini rivojlantirish darajasini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim texnologiyalari, tamoyil, korreksiya, maktabgacha ta'lim tashkiloti, kompyuter dasturlari, nutqni rivojlantirish, metodika

**Annotation:** This article mentions the special principles of using digital technologies in correcting the speech of preschool children. It also reveals the specific characteristics of digital technology users. Experience shows that the development and implementation of a program for the use of digital technologies in groups of preschool children improves their speech. increases the level of development

**Keywords:** Digital educational technologies, principle, correction, organization of preschool education, computer programs, speech development, methodology

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi pedagogika fanining muhim sohasi bo'lib, tarbiyaning yosh bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, maktabgacha tarbiya pedagogikasi va yosh pedagogikalari bilan umumiy ilmiy-nazariy asoslarga ega. Maktabgacha pedagogika ma'lum bir darajaga MTMLarning ta'lim-tarbiyasini amalda qo'llashga qaratilayotgan bo'lib, olimlar, pedagoglar, izlanuvchilarning ishlari natijasida shakllandi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasining ilmi-nazoriy asoslari va tarbiyaviy (jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat) hayotiy faoliyati ko'p olimlar, hisobchilar, pedagoglar o'z fikrlarini e'lon qilganlar. Bu borada vatandoshlarimizdan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiy, Al-Xorazmiy, tadqiqotlarida, xorij pedagoglaridan Ya.A.Komenskiy, L.D. Ushinskiy, N.K.Krupskaya, L.S.Vygodskiy, A.P.Usova, I.Ya. Lerner, M.N. Skatkin va boshqalarining ishlarini saqlashga loyiqdir. Hukumat davrida, maktabgacha tarbiyasini

boshidan vatandoshlarimizdan O.Hasanboeva, F.R. Qodirova, Z.R. Qodirova, N.Yusupova ham o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Maktabgacha ta'lim didaktikasi umumiy didaktikaning bir sohasi bo'lib, maktabgacha yoshdagi bo'lar o'quv va o'qish tajribasini hisobga oladi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantiradi va ularni maktabga tayyorlashni ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning maxsus tamoyillari. Asosiy tamoyili, kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning mahsuldorligi, to'g'ri va teskari aloqalarning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanishidan tarkib topgan. Shuningdek, pedagogik tajriba natijalari raqamli texnologiya vositalaridan MTM ta'lim-tarbiyasini yaratishda foydali bo'lgan didaktik tamoyillari qatoriga: "kompyuter monitori ko'rsatuvi kabi bajar" yoki "kompyuter monitoriga qarab bajar" bo'lib, umumiy tamoyillariga yo'naltirilgan dasturlar, ko'plab ilm-fan muammolari, o'zgarishlar bo'yicha, jadallik, ta'lim berish, tizimning, materialning tushunarli ishlashi, faollik va mustaqillik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi omillari, vositalari (kompyuter)ning ixchamligi va umumiyliigi (barcha turdagi texnik vositalar o'rnini bosa olishi) kirishini ko'rsatadi.

Bulardan tashqari, multimedia texnologiyasida izchillik va ketma-ketlik tamoyillari ham amalga oshadi. Yuqorida ta'kidlangan asosiy "kompyuterga qarab bajar" tamoyili kompyuter xotirasiga yuklangan o'quv materiallarini monitor ekraniga chiqarish va namoyish qilish asosida amalga o'shiriladi. Tarbiyachi o'quv materiallarini tushunarli bo'lish tamoyiliga alohida e'tibor berishi kerak. Jumladan tanlangan o'quv materiallari murakkab bo'lmasdan, tarbiyalanuvchilarga tushunarli bo'lishi lozim.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, o'rganilgan o'quv materiallarini hajmini ko'paytirishda, ta'lim jarayonini oldindan loyhalashda, natijani kafolatlashda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek ta'lim mazmunida, tuzilishida, uslublarida va shakllarida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarda olingan bilimlarni uzoq vaqt xotiralarida saqlash imkonini yaratadi. Bolalarning qiziqishlarini va kompyuterga nisbatan ishtiyoqlarini orttiradigan o'ziga xos uslub raqamli texnologiyadan foydalanish hisoblanadi.

Raqamli texnologiya tarbiyalanuvchining psixikasini rivojlantirish va fikrlashini shakllantirishga katta yordam beradi. Yaqingacha bosma nashr (kitoblar, risollar va sh.k.) lar axborotning asosiy an'anaviy manbayi bo'lib kelmoqda. Ulardan foydalanib (ularni o'qib) bolalarda fikrlash shakllantirildi, multimedia texnologiyasidan foydalanishda esa, matn bilan tanishish mobaynida, u bilan bir qatorda (video obraz) va animatsiya xususiyalarini oshirib, bolaning fikrlash saloxiyatlari ortib boradi. Kompyuterli ta'limning o'ziga xos xususiyatlardan biri kompyuterning bolalar organizmiga salbiy ta'sir etishidir. Shuning uchun, tarbiyalanuvchilar undan uzluksiz

15 daqiqadan ortiq foydalanmaslik kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan pedagogik sharoitlar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq qobiliyatini sezilarli darajada oshirgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yuqorida raqamli texnologiyaning pedagogik va psixologik jihatlari qisqacha yoritildi. Ularni to'la va har tomonlama keng ishlab chiqish pedagog, psixolog, uslubchi olimlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.A.Abduqodirov, N.H.Begmatova Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyati Qarshi «Nasaf» nashriyoti 2011 yil.
2. Muzaffarova, X. (2020). Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари: Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
3. Muzaffarova, X. (2021). Ta'lim–tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda o'qituvchining mahorati. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Muzaffarova, X. (2021). Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda korreksion metodlarining mohiyati. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Muzaffarova, X. (2021). Maktabgacha ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. *Scienceweb academic papers collection*.